XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Ishtixon ko‘chasi, 4-uy, +998 55 707 2567, https://kengash.gov.uz/ishtixon

2025-yil 30-dekabr VII-17-190-7-95-K/25 Ishtixon tumani

Ishtixon tumanida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga, shuningdek noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallanmagan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 422 va 452-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi qarori, Ishtixon tuman Davlat soliq inspeksiyasining 2025-yil 5-dekabrdagi P-11859-son xati, Ishtixon tumani hokimining birinchi o‘rinbosari Q.Nuriddinovning 2025-yil 6-dekabrdagi 185-son bildirgisi, Ishtixon tumani Adliya bo‘limining 2025-yil 30-dekabrdagi 5/16-25-son xulosasiga muvofiq, Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, 17-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Ishtixon tuman Davlat soliq inspeksiyasining 2025-yil 5-dekabrdagi P-11859-sonli xatiga, Ishtixon tumani hokimining birinchi o‘rinbosari Q.Nuriddinovning 2025-yil 6-dekabrdagi 185-sonli bildirgisi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishtixon tuman Davlat soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Ishtixon tumani hududida 2026-yil uchun:

- yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkalari 1-ilovaga;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashiga ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash tavsiya etilsin.

4. Ishtixon tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov), Ishtixon tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (A.Shoniyazov), Ishtixon tumani Davlat soliq inspeksiyasi (O.Usmonov) mazkur qaror ijrosini ta’minlash, belgilangan soliq stavkalari hamda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan belgilangan tartibda choralar ko‘rish hamda Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashiga axborot kiritib borishni ta’minlasin.

5. Ishtixon tumani hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), “Ishtixon ovozi” gazetasi muharriri (M.Rabbimova)larga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylash tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Abdug‘aniyev) hamda Ishtixon tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi raisi

RUZIYEV FAZLIDDIN KIRANOVICH

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-190-7-95-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar

ming so'mda

T/r	Tuman va shaharlarnomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Ishtixon tumani	1,00	1,00	1,00	1,10	1,00	1,30	1,30

***Izoh**: O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq "Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun" soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun soliq stavkalariga xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan qo'llanilayotgan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffisiyentlar mazkur moddaning 2-3-bandlari, shuningdek ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlangan yirik soliq to'lovchilarga tatbiq etilmasligi belgilab qo'yilsin.*

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-190-7-95-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar (qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Ishtixon tumani	1,10	1,10	1,10	1,10	1,30	1,10	1,10	1,10